O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumo'minovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI	1006
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI	1010
Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi	
MAHALLIY JUN TOLALARINING GEOMETRIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI NOTO'QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TADQIQ ETISH	1039
Ermator Shavkat Qulmatovich, Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLIYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	



RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLIYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI

Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li

Olmaliq shahar hokimligi

Raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha loyihalar menejeri

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida raqamli bank xizmatlarining, xususan, mobil ilovalar, onlayn banking va raqamli to'lov tizimlarining moliyaviy bozor taraqqiyotiga ta'siri ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma'lumotlari asosida 2021–2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlar (foydalanuvchilar soni, tranzaksiyalar hajmi, omonatlar va kreditlar miqdori) o'rganildi. Natijalarda mobil bank ilovalari foydalanuvchilari sonining 3,3 barobarga oshgani, to'lov tizimlari orqali tranzaksiyalar hajmining yildan-yilga 80% dan ortiq o'sgani aniqlangan. Masofaviy xizmatlardan foydalanish aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, omonatlar va kreditlash faoliyatining faollashuviga sabab bo'lmoqda. Tadqiqot xalqaro tajribalar bilan solishtirib, mavjud imkoniyatlar va dolzarb muammolarni tahlil etadi. Xulosa sifatida, raqamli bank xizmatlari O'zbekiston moliyaviy bozorini yanada samarali va inklyuziv qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotgani ta'kidlanadi. Foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va texnologik infratuzilmani rivojlantirish asosiy tavsiyalar qatorida berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli bank xizmatlari, mobil banking, onlayn banking, elektron to'lov tizimlari, moliyaviy bozor, O'zbekiston, moliyaviy inklyuziya, raqamli transformatsiya.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the impact of digital banking services in the Republic of Uzbekistan, particularly mobile applications, online banking, and digital payment systems, on the development of the financial market. Based on statistical data from the Central Bank of Uzbekistan and commercial banks, the study examines key indicators for the period 2021–2024, including the number of users, transaction volumes, deposits, and credit amounts. The findings reveal that the number of users of mobile banking applications increased by 3.3 times, while transaction volumes through payment systems grew by more than 80% annually. The use of remote banking services strengthens public trust in the banking system and stimulates deposit and lending activities. The study also compares national trends with international experience and analyzes existing opportunities and current challenges. In conclusion, digital banking services are identified as a key factor in enhancing the efficiency and inclusiveness of Uzbekistan's financial market. The main recommendations include improving users' digital literacy, strengthening cybersecurity, and developing technological infrastructure.

Key words: digital banking services, mobile banking, online banking, electronic payment systems, financial market, Uzbekistan, financial inclusion, digital transformation.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ влияния цифровых банковских услуг в Республике Узбекистан, в частности мобильных приложений, онлайн-банкинга и цифровых платёжных систем, на развитие финансового рынка. В исследовании на основе статистических данных Центрального банка Узбекистана и коммерческих банков изучены ключевые показатели за 2021–2024 годы, включая количество пользователей, объём транзакций, размер депозитов и кредитов. Результаты показывают, что число пользователей мобильных банковских приложений увеличилось в 3,3 раза, а объём транзакций через платёжные системы ежегодно рос более чем на 80%. Использование дистанционных банковских услуг способствует укреплению доверия населения к банковской системе и активизации депозитной и кредитной деятельности. В работе также проводится сопоставление с международным опытом и анализируются существующие возможности и актуальные проблемы. В заключение подчёркивается, что цифровые банковские услуги выступают важным фактором повышения эффективности и инклюзивности финансового рынка Узбекистана. Среди ключевых рекомендаций выделены повышение цифровой грамотности пользователей, усиление кибербезопасности и развитие технологической инфраструктуры.

Ключевые слова: цифровые банковские услуги, мобильный банкинг, онлайн-банкинг, электронные платёжные системы, финансовый рынок, Узбекистан, финансовая инклюзия, цифровая трансформация.



KIRISH

Raqamli bank xizmatlari — bu bank operatsiyalarini mobil ilova, Internet-bank va elektron to'lov tizimlari orqali masofadan olish imkonini beruvchi xizmatlar yig'indisidir. Global miqyosda so'nggi o'n yillikda internet va smartfonlar tarqalishi bankchilikning raqamli transformatsiyasini jadallashtirdi. Masalan, qishloq xo'jaligidan tortib xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan keng sohalarda internetga ulanish va mobil telefon egasi bo'lganlar sonining ko'payishi internet-banking va mobil bankingning ommalashuviga olib keldi¹.



1-rasm. Raqamli bank xizmatlarining afzalliklari²

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining 79%i moliyaviy hisob-kitoblarda hisobvaraqa ega bo'lib, ularning aksariyati o'z faoliyati uchun raqamli kanallardan foydalanmoqda. O'sha paytda past va o'rta daromadli mamlakatlarda kattalarning 84%i mobil telefon egasi ekanligi va 3 milliarddan ortiq inson smartfondan foydalanishi ma'lum bo'lgan, bu esa yangi raqamli moliyaviy xizmatlarga ulanish imkoniyatini kengaytirmoqda³. O'zbekiston sharoitida ham 2017–2024-yillarda "Raqamli iqtisodiyot" va "Raqamli O'zbekiston – 2030" kabi dasturlar qabul qilinib, moliyaviy sektorni raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2020–2024-yillarda O'zbekiston hukumati va Markaziy banki moliya sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha islohotlarni yo'lga qo'ydi. Bu jarayon natijasida internet- va mobil-banking xizmatlari kengayib bormoqda. Shu kontekstda, mazkur maqolada O'zbekiston moliyaviy bozorida mobil ilovalar, onlayn banking va raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi hamda moliyaviy bozorning o'sishiga ta'siri statistik ma'lumotlar va xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli bank xizmatlari global miqyosda moliyaviy sektor taraqqiyotining ajralmas omiliga aylandi. Jahon bankining "Global Findex" hisobotiga 2021-yilda ko'ra, raqamli texnologiyalar rivojlangan sari dunyo aholisi orasida bank hisobiga ega bo'lganlar ulushi 51% dan 76% ga oshgan bo'lib, ushbu o'sishda mobil banking va elektron to'lov platformalari muhim rol o'ynagan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, past daromadli aholining moliyaviy tizimga integratsiyalashuvi raqamli kanallar yordamida yuz bermoqda.

O'zbekiston sharoitida so'nggi besh yil ichida bank tizimi jadal raqamlashtirildi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida moliyaviy xizmatlarni masofadan ko'rsatish, to'lov tizimlarini integratsiyalash, elektron identifikatsiyani joriy etish kabi yo'nalishlar alohida belgilangan⁴. Shu asosda tijorat banklari mobil ilovalar orqali hisob ochish, to'lovlarni amalga oshirish, omonat va kredit xizmatlarini ko'rsatishni boshladi. Markaziy bankning 2023–2024-yillardagi hisobotlarida ko'rsatilishicha, raqamli bank ilovalari foydalanuvchilari soni 40 milliondan oshgan va bu ko'rsatkich yildan-yilga 30–40% ga o'sib bormoqda⁵.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli bank xizmatlarining moliyaviy bozorga ta'siri quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilingan:

- 1 Shermamatova, I. O. (2024). Development of online banking in the Republic of Uzbekistan. Journal of Contemporary Business Law & Technology: Cyber Law, Blockchain, and Legal Innovations, 1(6). <https://doi.org/10.61796/JCBLT.v1i6.621>
- 2 Manba: Muallif ishlanmasi
- 3 World Bank. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex>
- 4 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
- 5 Markaziy bank. (2024). 2023-yil yakuni bo'yicha bank tizimi holati. <https://cbu.uz>



- Moliyaviy inklyuziya: Raqamli xizmatlar aholining uzoq hududlardan ham bank tizimiga ulanishini ta'minlab, inklyuzivlikni oshiradi (Demirguc-Kunt va boshq., 2018)⁶.
- Tranzaksiya qulayligi va samaradorligi: Masofaviy xizmatlar foydalanuvchi uchun vaqt va xarajetni tejaydi, banklar uchun esa operatsion xarajatlarni kamaytiradi (Ozili, 2018)⁷.
- Raqobat va innovatsiya: Raqamli to'lov tizimlari (Payme, Click va h.k.) banklararo raqobatni kuchaytirib, yangi mahsulot va xizmatlarning yaratilishiga turtki beradi.
- Moliyaviy barqarorlik: Mobil banking orqali mikroqarzarlar, kichik biznes kreditlari, va investitsion xizmatlar kengayib, iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatadi (Donovan, 2012)⁸.

O'zbekistondagi holatni chuqur tahlil qilgan S. Baxtiyrov va boshqalarning (2022) tadqiqotida raqamli bank xizmatlarining omonatlar va kreditlar hajmiga sezilarli ta'siri mavjudligi isbotlangan va raqamli ilovalar orqali jalb qilingan omonatlar 2021–2022 yillarda 60% ga oshgani ko'rsatilgan⁹.

Shuningdek, M. Xalilov va F. Jo'rayev (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli to'lov tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarning yalpi moliyaviy aylanishdagi ulushi 25% dan oshganligi qayd etilgan va bu holat moliyaviy bozorning raqamli segmenti tobora mustahkamlanayotganidan darak beradi¹⁰.

Xalqaro tajriba (masalan, Xitoydagi WeChat Pay, Hindistondagi UPI, Kenya'dagi M-Pesa) shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan yaratilgan yagona to'lov infratuzilmasi va huquqiy asoslar raqamli moliyaviy xizmatlarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston moliyaviy sektori ham qat'iy qonunchilik bazasi, texnologik infratuzilma va iste'molchini himoya qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish orqali raqamli bank xizmatlaridan samarali foydalanish darajasini oshirishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari hamda to'lov tizimlari operatorlarining ochiq statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Xususan, Markaziy bankning yillik hisobotlari va statistik byulletenlaridan foydalanilib, masofadan bank xizmatlari, elektron pul hamyonlari va onlayn tranzaksiyalar bo'yicha so'nggi tendensiyalar o'rganildi¹¹. Mazkur ma'lumotlar to'plami bilan bir qatorda, qabul qilingan qonun va reglament hujjatlari (masalan, O'zbekiston Respublikasining 05.11.2019 yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son¹² Qonuni, to'lov xizmatlari haqidagi normativlar) ham tahlil qilindi. Xalqaro tajriba bo'yicha ma'lumotlar esa Jahon banki, World Bank Global Findex kabi manbalardan olinib, O'zbekiston sharoitini solishtirish uchun ishlatildi¹³. Yuqoridagi manbalarni chuqur o'rganish yo'li bilan moliyaviy bozor ko'rsatkichlari va raqamli bank xizmatlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, statistik misollar va grafiklar yordamida namoyish etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda tadqiqot doirasida yig'ilgan ma'lumotlar asosida raqamli bank xizmatlarining O'zbekiston moliyaviy bozoriga ta'siri bo'yicha tahlil etilgan natijalar keltiriladi. Tahlil uchun asosiy ma'lumot manbalari sifatida Markaziy bank statistikasi, yirik tijorat banklarining yillik hisobotlari hamda raqamli platformalar foydalanuvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari tanlanadi. Tahlil doirasida mobil ilovalar, internet-banking tizimlari va elektron to'lov platformalari kabi asosiy raqamli bank xizmatlari faoliyati qamrab olinadi. Asosiy ko'rsatkichlar sifatida foydalanuvchilar sonining o'sish sur'ati, tranzaksiyalar hajmi, mijozlarning hisoblaridagi mablag' miqdori hamda bank xizmatlari sifati kabi parametrlar tahlil qilinadi.

Mobil ilovalar: So'nggi yillarda O'zbekistonda mobil banking ilovalariga bo'lgan talab sezilarli darajada oshdi. Masalan, 2022–2024-yillarda Google Play orqali bank ilovalarini o'rnatish 43% ga ko'paydi. Ko'rsatkichlardan ma'lum bo'lishicha, 2024-yilning boshiga keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, eng ko'p o'rnatishga ega mobil bank dasturi "Click" bo'lib, uni UzCard to'lov tizimi ilovasi ortda qoldirdi (2-rasm).

6 Demirguc-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2018). The Global Findex Database 2017: Measuring financial inclusion and the fintech revolution. World Bank Group. <https://globalfindex.worldbank.org>

7 Ozili, P. K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability. *Borsa Istanbul Review*, 18(4), 329–340. <https://doi.org/10.1016/j.bir.2017.12.003>

8 Donovan, K. (2012). Mobile money for financial inclusion. In T. Kelly & C. Rossotto (Eds.), *Information and Communications for Development 2012: Maximizing Mobile* (pp. 61–73). World Bank.


9 Baxtiyrov, S., Karimov, N., & Abdullayev, B. (2022). Raqamli bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (5), 112–120.

10 Xalilov, M., & Jo'raev, F. (2023). Elektron to'lov tizimlarining O'zbekiston moliyaviy bozoriga ta'siri. *Moliyaviy tahlil va tadqiqotlar jurnali*, (2), 44–50.

11 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Markaziy bankning 2024-yilgi yillik hisoboti. <https://www.scribd.com/document/954101484/Markaziy-Bank-Yillik-Hisoboti-2024>

12 <https://lex.uz/docs/-4581969>


13 World Bank. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex>

2-rasm. Bank kartalaridan naqdlashtirish hajmlari dinamikasi¹⁴

2024-yilda bank va to'lov tashkilotlari mobil ilovalari orqali raqamli identifikatsiyadan o'tgan mijozlar soni 5,4 millionga oshib, yil oxiriga kelib 12,2 millionga yetdi. Bu o'sish shuni ko'rsatadiki, aholi nafaqat onlayn to'lovlarni, balki bank hisob-raqamlarini ham uydan chiqmasdan, masofadan ochish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, mobil banklash tizimlarida biometrik identifikatsiya (Face ID) texnologiyasini tatbiq etish jarayonlari jadallashdi; 2025-yilning boshiga kelib 28 ta bank va 15 ta to'lov tashkiloti mobil ilovalariga ushbu texnologiya kiritildi¹⁵.

Onlayn banking (internet-banking): Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning aprel holatiga O'zbekiston tijorat banklarida masofadan bank xizmatlariga (internet- va mobil-banking) ulangan mijozlar soni sezilarli darajada oshgan. Eng katta ulushga ega banklar sifatida O'zbekiston sanoat-qurilish banki (UzSanoatQurilish Banki) — 6 220 136 nafar, Agrobank — 4 869 912 nafar va Xalq banki — 4 439 174 nafar foydalanuvchi bilan ajralib turadi. Ushbu ko'rsatkichlar xizmatlardan foydalanish hajmi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Masalan, aksariyat banklar foydalanuvchilari Ulug'bekBank, Agrobank va Xalq bankida jamlangani kuzatilgan bo'lsa, aholi orasida UzSanoatQurilish Bankiga bo'lgan talab 32% ga teng. Umuman olganda, masofaviy bank tizimlaridan foydalanuvchilar soni doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu esa banklar tomonidan internet- va mobil-banking xizmatlari muntazam yangilanib borilayotganini ko'rsatadi.

Raqamli to'lov tizimlari: To'lov tashkilotlari (Payme, Click, Apelsin, UzumPay va boshqalar) orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar hajmi ham keskin oshmoqda. 2024-yilda yangi to'lov tashkilotlariga litsenziyalar berilishi natijasida ularning soni 44 taga yetdi, bu esa aholining nafaqat banklar, balki to'lov tashkilotlari xizmatlariga bo'lgan talabining ortganidan dalolat beradi. Shu yili to'lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,8 barobar oshib, 333 trillion so'mga yetdi. Jismoniy shaxslar ushbu tizimlar orqali ayniqsa kommunal xizmatlar uchun 26,2 trln so'm, mobil operatorlarga 14,8 trln so'm, davlat to'lovlari uchun 14,3 trln so'm, kredit to'lovlari uchun 5,7 trln so'm hamda boshqa budjet to'lovlari uchun 5,3 trln so'm o'tkazishgan. Elektron pullar (e-hamyonlar) bo'yicha ham sezilarli o'sish qayd etildi: 2024-yilda 12 ta ro'yxatdan o'tgan elektron pul tizimlarida ochilgan hamyonlar soni yil boshidagi 15,6 milliondan 20,6 millionga oshdi. Shu davr mobaynida elektron pullar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2023-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 21,8 milliontani tashkil etdi va ularning hajmi 775 milliard so'mga yetdi (3-rasm)¹⁶.

3-rasm. Bankomat va infokiosklar soni¹⁷

14 Muallif ishlanmasi

15 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Markaziy bankning 2024-yilgi yillik hisoboti. scribd.com/document/954101484/Markaziy-Bank-Yillik-Hisoboti-2024

16 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Markaziy bankning 2024-yilgi yillik hisoboti. scribd.com/document/954101484/Markaziy-Bank-Yillik-Hisoboti-2024

17 Muallif ishlanmasi



E-hamyon egalari 92%i ushbu mablag'lar bilan tovar va xizmatlar uchun to'lov qildi, faqat 8%i jismoniy shaxslarga mablag' o'tkazishga yo'naltirildi. O'tkazmalarining tarkibida esa 25% mobil aloqa xizmatlari, 23% kommunal to'lovlar, 13% davlat xizmatlari, 8% chakana savdo to'lovlari va boshqa yo'nalishlarga to'g'ri keladi.

Bank sektori (omomatlar va kreditlar): Raqamli bank xizmatlari omonatlar hajmi va kreditlar bo'yicha ham ijobiy o'zgarishlarga turtki berdi. 2024-yilda aholining banklardagi omonatlariga bo'lgan ishonch ortdi: jismoniy shaxslarning omonat qoldig'i 42% ga (36 trillion so'mga) oshib, 122 trillion so'mni tashkil etdi. Xususan, milliy valyutada jalb qilingan omonatlar 54% ga o'sib, 88 trillion so'mga yetdi va umumiy omonatlar tarkibidagi ulushi 66% dan 72% gacha oshdi.

Bu esa aholi orasida milliy valyutada omonatga bo'lgan qiziqishning ortib borishi raqamli bank xizmatlarining qulayligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Kreditlash bo'yicha ham markazlashgan elektron platformalar va raqamli identifikatsiya joriy etilishi ortidan yengillashgan jarayonlar kuzatilmoqda. Masalan, "E-Kontrakt" tizimi orqali tijorat banklari bilan to'g'ridan-to'g'ri integratsiya bo'lib, kredit topshirish va rasmiylashtirish jarayoni masofadan amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklari uchun «Matrix BI» tizimi joriy qilinib, kredit axborotini tezkor tahlil qilish imkoniyati yaratilgani ma'lum qilindi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston banklarida mobil va internet-banking xizmatlarini ommalashtirish bank sektoridagi operatsion jarayonlarni soddalashtirgan, mijozlarga xizmat ko'rsatishning masofaviy va tezkor bo'lishini ta'minlagan, natijada ishonchli omonatlar hamda kreditlar hajmida o'sishga turtki bermoqda.

O'zbekiston tajribasining xalqaro kontekstda solishtirilishida ba'zi o'xshashliklar va farqlar mavjud. Misol uchun, Hindiston va Braziliyada ham bank ilovalari va elektron to'lov tizimlari kundalik iste'mol uchun keng joriy etilgan bo'lib, ular aholining mikrokredit va mikroinvestitsiya bozorlari rivojiga ham yordam bermoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha aholining 84%i mobil telefondan foydalanadi va 79%i bank hisobvaraqlariga ega bo'lsa, yangi raqamli moliyaviy xizmatlar muhim omilga aylanmoqda. Shu kabi, O'zbekiston ham past tranzaksiya to'lovlarni rag'batlantiruvchi "Click" va "Paynet" kabi loyihalar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirmoqda. Raqamli bank xizmatlari natijasida bank sektorida raqobatning kuchaygani, yangi raqamli startap va fintech loyihalarga yo'l ochilgani, iste'molchilar uchun qulaylik yaratilgani ijobiy jihatlar sifatida baholanadi (4-rasm).



4-rasm. Raqamli bank xizmatlari¹⁸

18 Muallif ishlanmasi



Biroq rivojlanish bilan bir qatorda muammolar ham mavjud. Raqamli tranzaksiyalar ortishi bilan kiberxavfsizlik va firibgarlik xatarining ko'tarilishi kuzatiladi. Shu sababli Markaziy bank 2024-yilda kartochka firibgarligiga qarshi kurashda tezkor choralar ko'rib, 9,5 mlrd so'm miqdoridagi shubhali pul mablag'larini bloklaganini xabar qildi; markazlashgan antifrod tizimi joriy etilib, unga 34 nafar bank va 9 ta to'lov tashkiloti integratsiya qilindi. Bu kabi chora-tadbirlar raqamli moliyaviy ekotizimning xavfsizligini ta'minlash uchun zarurdir. Bundan tashqari, aholining raqamli xizmatlarga masofadan o'tish uchun zarur texnik va iqtisodiy imkoniyatlari, ma'lumotlar himoyasi va internet tezligi masalalari ham dolzarbligicha qolmoqda. Xalqaro tajribada, misol uchun, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari mobil pul tizimlaridan keng foydalanayotgan bir paytda, Uzoq Sharqda raqamli bank texnologiyalarining xavfsizligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, banklar va to'lov tizimlari o'rtasida ochiq bank (open banking) va ma'lumot almashish standartlarini joriy etish bo'yicha ham istiqbolli ishlanmalar amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish xalqaro tajriba bilan uyg'un ravishda amalga oshirilmoqda. Masalan, MDB davlatlarida ham onlayn-bank xizmatlari orqali omonatlar va kredit olish jarayonlari optimallashtirilmoqda. Biroq rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, foydalanuvchilarni himoya qilish, maxfiylik va raqamli literaturani oshirishda hali qo'shimcha ishlar qilish talab etiladi. Shu bilan birga, moliya bozorini raqamlashtirish yosh avlodni moliya tizimiga jalb etish, kichik va o'rta biznes uchun kredit olish jarayonlarini soddalashtirish hamda tahliliy axborot resurslarini boyitishda katta imkoniyatdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston moliyaviy bozorida raqamli bank xizmatlari (mobil ilovalar, onlayn banking, elektron to'lov tizimlari) qisqa fursatda sezilarli taraqqiyot ko'rsatdi. Buning natijasida:

1. Mijozlar qulayligi ortdi: aholi masofaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, bankka borishga hojat qolmay qoldi. Bu esa omonatlar va kreditlar hajmini oshirishga yordam berdi.

2. Bozor raqobati kuchaydi: yangi raqamli xizmatlar paydo bo'lib, banklar va to'lov tashkilotlari o'rtasidagi raqobat kuchaydi. Natijada to'lov tizimlari soni oshdi (44 taga yetdi) va tranzaksiya hajmi 333 trln so'mgacha yetdi.

3. Texnologik yangiliklar tatbiq etilmoqda: Face ID, biometrik identifikatsiya, elektron hujjat aylanishi va antifrod tizimlari singari texnologiyalar qo'llanilib, xizmatlar sifatini oshirish yo'lida qadamlar tashlanmoqda.

4. Kiberxavfsizlik muammolari: raqamli tranzaksiyalar ortishi bilan firibgarlik va kiberxavfsizlik masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Markaziy bank bu borada antifrod tizimini joriy etdi, ammo foydalanuvchilar ma'lumotlarini himoya qilish va xaker hujumlariga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlar talab etiladi.

5. Kelajak yo'nalishlari: ilk navbatda ochiq bank standartlarini joriy etish va fintech sohasini qo'llab-quvvatlash muhim. Shuningdek, aholini raqamli moliyaviy xizmatlarga o'rgatish, raqamli literaturani oshirish va infratuzilmani mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Shu asosda tavsiya etamiz: bank va to'lov tashkilotlari raqamli xizmatlarini yanada kengaytirib, foydalanuvchilar uchun qulay va xavfsiz platformalarni ishlab chiqishi, Markaziy bank va hukumat esa raqamli iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirishda texnologik infratuzilmani mustahkamlash hamda qonuniy bazani takomillashtirishga e'tibor qaratishi kerak. Bu o'z navbatida moliyaviy bozorning raqamli rivojlanishini tezlashtiradi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxtiyorov, S., Karimov, N., & Abdullayev, B. (2022). Raqamli bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (5), 112–120.
2. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2018). The Global Findex Database 2017: Measuring financial inclusion and the fintech revolution. World Bank Group. <https://globalfindex.worldbank.org>
3. Donovan, K. (2012). Mobile money for financial inclusion. In T. Kelly & C. Rossotto (Eds.), Information and Communications for Development 2012: Maximizing Mobile (pp. 61–73). World Bank.
4. Karimova, G. (2021). Raqamli bank xizmatlarida kiberxavfsizlik muammolari. Axborot texnologiyalari va xavfsizlik, (4), 27–32.
5. Markaziy bank. (2024). 2023-yil yakuni bo'yicha bank tizimi holati. <https://cbu.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Markaziy bankning 2024-yilgi yillik hisoboti. <https://www.scribd.com/document/954101484/Markaziy-Bank-Yillik-Hisoboti-2024>
7. Ozili, P. K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability. Borsa Istanbul Review, 18(4), 329–340. <https://doi.org/10.1016/j.bir.2017.12.003>
8. Xalilov, M., & Jo'raev, F. (2023). Elektron to'lov tizimlarining O'zbekiston moliyaviy bozoriga ta'siri. Moliyaviy tahlil va tadqiqotlar jurnali, (2), 44–50.
9. Shermamatova, I. O. (2024). Development of online banking in the Republic of Uzbekistan. Journal of Contemporary Business Law & Technology: Cyber Law, Blockchain, and Legal Innovations, 1(6). <https://doi.org/10.61796/JCBLT.v1i6.621>



10. World Bank. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex>;
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Markaziy bankning 2024-yilgi yillik hisoboti. <https://www.scribd.com/document/954101484/Markaziy-Bank-Yillik-Hisoboti-2024>
12. Shodmonov, R., & Mustafakulov, S. (2024). Yashil iqtisodiyotning shakllanish sharoitida sanoat korxonalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xorij tajribasi. Nordic Press.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>